

**МАHMUD ZAMAXSHARIYNING “ATVOQ UZ -
ZAHAB” ASARIDA FALSAFIY-AXLOQIY
MASALALAR YECHIMI**

Aytbayev Mansurbek Yusupovich, Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD)

**THE SOLUTION OF PHILOSOPHICAL AND
ETHICAL ISSUES IN MAHMUD ZAMAXHARI'S
WORK “ATVOQ UZ - ZAHAB”**

Aytbayev Mansurbek Yusupovich, Associate Professor of Tashkent State Agrarian University, Doctor of Philosophy (PhD)

**РЕШЕНИЕ ФИЛОСОФСКИХ И ЭТИЧЕСКИХ
ВОПРОСОВ В РАБОТЕ МАХМУДА
ЗАМАХШАРИ “АТВОК УЗ - ЗАХАБ”**

Айтбаев Мансурбек Юсупович, доцент Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философских наук (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning “Atvoq-uz zahab” asarida keltirilgan falsafiy-axloqiy qarashlari o‘rganilgan. Shuningdek, insonning axloqiy-ma’naviy yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlar, axloqiy tamoyillar batafsil bayon qilingan va ularning bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: axloq, ilm, takabburlik, maqtanchoqlik, kibr, kamtarlik, ijtimoiy birdamlik, mehr-oqibat, sha’n-sharaf, do’stlik, halollik, sabrlilik, mardlik, ochko‘zlik, axloqiy jasorat, saxiylik, saxovatlilik, nutq odobi.

Abstract: In this article, the philosophical and moral views of Mahmud al-Zamakhshari, presented in the work "Atwaq-uz Zahab", are studied. Also, the qualities and moral principles that are important for the moral and spiritual growth of a person are described in detail and their importance today is revealed.

Keywords: morals, knowledge, arrogance, pride, humility, social cohesion, kindness, honor, friendship, honesty, patience, courage, greed, moral courage, generosity, generosity, speech etiquette.

Аннотация: В данной статье исследуются философско-нравственные взгляды Махмуда аз-Замахшари, изложенные в произведении «Атвак-уз Захаб». Также подробно описаны качества и моральные принципы, важные для нравственного и духовного роста человека, и раскрыта их значимость в наши дни.

Ключевые слова: нравственность, знание, высокомерие, гордость, смиренение, социальная сплоченность, доброта, честь, дружба, честность, терпение, смелость, жадность, моральное мужество, щедрость, речевой этикет.

KIRISH. Shaxslarning axloqiy jihatdan rivojlanishi insoniyat tarixidagi muhim masalalardan biridir. Dirlarning axloqiy tamoyilga oid buyruqlari, faylasuflarning odob-axloq haqidagi fikrlari axloq tushunchasining izohlanishida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Islom tafakkuri tarixida o‘z g‘oyalari bilan o‘zları yashagan davr va undan keyingi davrlarga ta’sir o’tkazgan mutafakkirlar ko‘p. Ana shunday mutafakkirlardan biri Az-Zamaxshariydir.

Uning hayotligida alohida ajralib turadigan va keyingi avlodlarga ta’sir etuvchi jihatni uning tafsir va arab lingivistikasi yo‘nalishida asarlar yozganligidan ko‘ra, o‘z davriga qadar atroflicha muhokama qilinmagan odob-axloq haqidagi fikrlaridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Mutafakkirning falsafiy-axloqiy g‘oyalari yorqin namoyon bo‘ladigan ikkita buyuk asarlaridan biri “Atvoq uz-zahab fi-l-mava’iz va-l-xutab”dir.



<https://orcid.org/0009-0000-8615-6265>

e-mail:
mansurbek_0111@mail.ru

Asarning birinchi maqolasida Zamaxshariyning gnesologik qarashlarida, ilmni insonning otasi, taqvonı esa uning onasiga qiyoslaydi: “Ilm otadir va bu yomonlikni tuzatuvchi eng yaxshi narsadir. Taqvo esa onadir, to‘g‘rirog‘i, qalbga eng yaqin narsa shudir. Shunday ekan, ulardan panoh topib, o‘zingizni himoya qiling”¹. Muallif ilm va taqvoning (dinga sadoqat yoki ehtirom) hayotdagi yomonliklar, aniqrog‘i, qiyinchiliklar yoki salbiy holatlarni hal qilish va tuzatishdagi ahamiyatini ta‘kidlar va ilmni otaga qiyoslar ekan, uning asosiy yo‘naltiruvchi kuch ekanligini ko‘rsatadi. Mutafakkirning ushbu so‘zлари hozirgi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi, ilm doimo bilim, ratsionallik va taraqqiyotni ifodalaganidan ma’lum.

Ikkinci maqolada Zamaxshariy takabburlik, maqtanchoqlik, kibr-u havoni qattiq tanqid ostiga oladi: “Ey inson! Sening asling, xuddi ko‘zadek, loydan. Holbuki, ich-ichida takabburlik va maqtanchoqlik hukm suradi. Ba‘zan, otang va ota-bobolaring bilan, ba‘zan baxt va omading bilan g‘ururlanasan. Birovga kibr va manmanlik bilan qaramaslik, ota-bobolaring bilan maqtanmaslik sen uchun munosib va yaxshidir. Ey, do‘stim! Haqiqatni ko‘r: nimaga minasan va qanday holatda bo‘lasan, shuning uchun ortiqcha ehtiyojlaringni kamaytir, maqtanchoqlik va kibrni to‘xtat!”². Mutafakkir bu orqali insonning tabiatida manmanlik va kibr azaldan borligiga urg‘u beradi, insonni loydan yasalgan ko‘zaga qiyoslab, uning ojiz va mo‘rt tabiatga egaligini ta‘kidlaydi. Ikkinci tomondan, bu fikr hammaning bir xil oddiy, dunyoviy materialdan yaratilganligini va hech kim boshqasidan ustun emasligini ham ko‘rsatadi. Aslida, tuproqning naqadar hokisorligi va kamtarona xususiyatga egaligi ham uning mazmunida aks etadi. Lekin, shunday hokisor omildan kelib chiqishganiga qaramay, odamlar ko‘pincha takabburlik va maqtanchoqlik qiladilar. Zamaxshariy insonlarining o‘z boyligi, merosi va nasl-nasabi, shuningdek, shaxsiy yutuqlari va omadlari bilan mag‘rurlanishini va bu boshqalardan ustunlik hissini keltirib chiqarishini qoralaydi. Fikrini esa, “haqiqatni ko‘r: nimaga minasan va qanday holatda bo‘lasan” deya izohlar ekan, insonning oxir-oqibat tobutda yotishini va

so‘nggi manzilini eslatadi va keraksiz istakehtiyojlarni kamaytirishni ta‘kidlaydi.

To‘rtinchi maqolada esa, Zamaxshariy yana kibr-u havo va boshqalardan o‘zini ustun qo‘yishni qoralaydi. Kibrli shaxsni bo‘yi ustun kabi bo‘lishi, burni ham kibrga to‘la bo‘lishi, gavdasi mag‘rurlik bilan bir tarafga egilgan bo‘ladi deb ta‘riflaydi. Bunday odam o‘z gunoh va savoblaridan bexabar bo‘lishini ta‘kidlar ekan, uzun etakli kiyim kiyib, etagini sudrab yurishni eng katta gunohlardan deya ta‘riflaydi. Bu bilan u uzun etakli kiyim deganda, qimmatbaho kiyimni nazarda tutar ekan, o‘zini ko‘z-ko‘z qilishni qoralaydi: “Ey ahmoq! Senga o‘xshagan insonlar Allohning rahmatidan uzoqroqdirlar. Senga xayf bo‘lsin! Menga aytchi, qachongacha bu uzun etakli ko‘ylakni kiyasan? Etaging ustida sudralgan yerning toshlari va tuproqlari tez orada seni qoplab, turli balolar keltirib ozor berishadi. Sening unga bergen og‘irligingdan ham ko‘proq og‘irlik beradi”³. Islom falsafasida kamtarlik qadrlanib, takabburlik va manmanlik qattiq qoranishi atoqli islom mutafakkiri Zamaxshariy ta‘limotlarida ham o‘z ifodasini topgan. Zamaxshariy manmanlikni og‘ir axloqiy illat deb ta‘riflar ekan, kibrli shaxsni ustundek bo‘yga ega bo‘lishi, burni ham g‘ururga to‘laligi, gavdasi ham g‘ururdan bir chetga egilganligini tasvirlash bilan kibrli odamning jismoniy ko‘rinishlarini yorqin aks ettiradi. Takabbur odam ko‘pincha o‘zining kamchiliklari va fazilatlaridan bexabar bo‘lib, o‘z manmanligidan ko‘z-lari ko‘r bo‘ladi. Zamaxshariy uzun va qimmatbaho kiyimlarni kiyishni boylik va mavqeni ko‘z-ko‘z qilish va maqtash vositasi sifatida qoralaydi. Bu xatti-harakatni g‘ururning namoyon bo‘lishi va ijtimoiy ustunlikka intilish sifatida ta‘riflab, uning amaliy oqibatlarini izohlaydi. Uzun etakli kiyim tuproq va toshlarni sudrab borishini g‘ururning haqiqiy hayotiy muammolar va yuklarni keltirib chiqarishiga o‘xshashini majoz vositasida tasvirlar ekan, takabburlikning befoydaligi va zararini ta‘kidlaydi. Kamtarlik nafaqat tashqi ko‘rinishga, balki munosabat va xatti-harakatlarga ham tegishli bo‘lib, Zamaxshariy nazdida, kamtarona kiyim kiyish, aslida, ichki kamtarlikni aks ettiradi va ortiqcha e’tiborni jalb qilmaslik yoki boshqalardan ustunlik hissini uyg‘ot-

¹Махмуд Замахшарий. Атвоку-з-захаб. Кўлёзма.- ЎзРФАШИ №4877. -В. 68.

²Махмуд Замахшарий. Атвоку-з-захаб. Кўлёзма.- ЎзРФАШИ №4877. -В. 68.

³ Махмуд Замахшарий. Атвоку-з-захаб. Кўлёзма.- ЎзРФАШИ №4877. -В. 68.

maslikni targ‘ib qiladi. Zamaxshariyning: “Ey ahmoq! Senga o‘xshagan insonlar Allohnинг rahmatidan uzoqdirlar” degan nidosi Alloh taolo kibrni yoqtirmasligi haqidagi islom ta’limotiga mos keladi. Zamaxshariyning takabburlikni qoralashi, kamtarlik va hayoni targ‘ib qilishi asosiy islomiy qadriyatlarni izohlab, mutafakkir yorqin ta’riflari va amaliy maslahatlari bilan kamtarlikning ma’naviy-ijtimoiy ne’matlari, takabburlikning tuzoqlari haqida so‘z yuritadi. Parchada keltirilgan tosh va tuproq tasviri takabburlikning yuki va oqibatlarini anglatadi. Kibr va takabburlik ijtimoiy izolyatsiyaga, munosabat-larning buzilishiga va shaxsiy qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Beshinchi maqolada Zamaxshariy insonlarni ijtimoiy birdamlik va yakdillikka chorlaydi hamda insonlarni bir-birining dardini, g‘amlarini yengil qilish uchun mehr-oqibat, donolik ko‘rsatishi kerakligiga ishora qiladi. “Ey, otam va onamning o‘g‘li! Otalar va onalar haqida gapir. Qabila oqsoqlari, muhtaram do‘stlar, uzoq-yaqin qo‘shnilar, tiz cho‘kib o‘tirib, bir-birimizning dardimizni, qayg‘ularimizni yengil qilish uchun harakat qilaylik, mehr-oqibat va donolik bilan bir-birimizdan foya ko‘radigan insonlar haqida gapirgin”⁴. Mutafakkir o‘quvchiga birodar, uka sifatida murojaat qilib, o‘z so‘zlarini “ey, otam va onamning o‘g‘li” deb boshlaydi. Islomda ota-onaga hurmat va itoatga katta e’tibor beriladi. Qur’oni karimda “Va insonni ota-onasiga yaxshi muomala qilishni buyurdik” (46:15) deyilishi ham bejiz emas. Farzandlar ota-onasini hurmat qilishlari, izzatda bo‘lishlari va ularga g‘amxo‘rlik qilishlari kerak, ayniqsa keksalikda. Asarda shuningdek, musulmon jamoalaridagi keksalarga katta hurmat bilan qarash ham aks etgan bo‘lib, Qur’oni karim va hadisi shariflarda keksalarni e’zozlash, ularning nasihatlarini tinglash, duolarini olishga alohida urg‘u berilgan. Zamaxshariy musulmonlarni do‘stlari va qo‘shnilariga mehmondo‘st va mehribon bo‘lishga, qiyin paytlarda yordam va ko‘mak berishga, bir-birlarining dardi va qayg‘ularini yengil qilishga, bir-birlarining quvonch va muvaffaqiyatlariga sherik bo‘lishga da’vat etgan.

Yettinchi maqolada kamtarlikning ahamiyati haqida so‘z yuritar ekan, Zamaxshariy insonni

odamlar oldida ulug‘lash va ko‘klarga ko‘tarish, aslida, uni tom ma’noda kamsitish ekanligini aytadi: “Bu (maqtash, ulug‘lash) uning obro‘si va shon-shuhratini butunlay yo‘q qilishdir. Shunday ekan, sharaf va obro‘dan ko‘ra bir burchakda qolishni sevimliroq deb biling, shunda siz balolardan xoli, yashirin gina va hasaddan uzoqda yashay olasiz. Haqiqiy hurmatli kishiga yo havas qilinadi yoki hasad qilinadi. Uning o‘zi ham boshqalarga nisbatan yo gina his qiladi yoki nafrat his qiladi. Bu odamlarni hayajon va qayg‘uga soladigan ofatdir. Lekin Alloh xohlaganini qiladi”⁵. Zamaxshariy bu orqali shon-shuhrat va e’tirofga intilishning xavfliligi, kamtarroq hayot kechirish zarurligiga e’tibor qaratadi. Haddan tashqari maqtov va ulug‘lash inson obro‘sining tushishiga olib kelishi mumkinligi haqida fikr yuritar ekan, shon-shuhrat keltiradigan balolardan, masalan, boshqalarning yashirin kin, gina va hasadidan xoli hayot kechirishga chorlaydi.

To‘qqizinchi maqolada Zamaxshariy sha’n-sharaf masalasini yoritib, fosiq va solih odamning farqlarini ochib beradi: “Mening so‘zimga quloq sol! Senga o‘z mulkini himoya qiladigan, lekin o‘z sha’nini himoya qilishni o‘ylamaydigan fosiq kimligini aytaman. Bunday odam mol-dunyosi bisyor va qorni to‘q bo‘lganida oilasi och qolsa qarshi chiqmaydi. Senga buyuk va baxtli odam kimligini aytaman. U yuqorida zikr qilingan munosabat va xatti-harakatlarga zid ish qiladi. U o‘zini himoya qilish uchun o‘z sha’nidan qalqon sifatida foydalanadigan insondir”⁶. Ko‘rinib turibdiki, muallif ikki xil shaxsni o‘z ustuvorliklari va qadriyatlariga ko‘ra qarama-qarshi qo‘yadi: nomus va oiladan ko‘ra moddiy boylikni birinchi o‘ringa qo‘yuvchi fosiq va o‘z sha’nini hamma narsadan ustun qo‘yuvchi ulug‘ va baxtli inson. Ta’kidlanishicha, yovuz odam o‘zining moddiy boyliklarini asrashni birinchi o‘ringa qo‘ygan, lekin sha’ni va axloqiy benuqsonligiga e’tibor bermaydigan, xudbin odamdir. Bunday insonlar faqat o‘z rohati va farovonligini ta’minlashni ko‘zda tutib, oilasining azob-uqubatlariga befarq bo‘lishi, o‘z boyligi va jismoniy ehtiyojlarini qondirib, yaqinlarining asosiy ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirishlari qoralanadi. Buyuk va baxtli odam esa o‘z oilasining

⁴ Махмуд Замахшарий. Атвоку-з-захаб. Кўлёзма.-ЎзРФАШИ №4877. -В. 68.

⁵ Махмуд Замахшарий. Атвоку-з-захаб. Кўлёзма.-ЎзРФАШИ №4877. -В. 68.

⁶ Махмуд Замахшарий. Атвоку-з-захаб. Кўлёзма.-ЎзРФАШИ №4877. -В. 68.

farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yib, sha’ni va oilasini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yadi. Nomusdan qalqon sifatida foydalanish tushunchasi, halollik va axloqiy tamoyillar bilan yashashni anglatadi. Bu sha’n va axloqiy benuqsonlikni saqlash insonni nomussizlik va salbiy oqibatlardan himoya qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

O‘ninch maqolada do‘stlik va birodarlik odobi haqida so‘z boradi. Zamaxshariy haqiqiy do‘stni haqiqat va yaxshilik asosiga qurilishini izohlaydi va bunday munosabatlarni saqlash kerakligini aytadi. Shu bilan birga, mutafakkir “Agar bunday bo‘lmasa va u ba’zi yomon ishlarga moyil bo‘lsa va undan nifoq va buzg‘unchilik chiqqa boshlassa, garchi u poyabzal yoqasi yoki ot qurshagi bo‘lsa ham bunday do‘stning do‘stligini qabul qilma, (ya’ni senga juda katta foyda keltirsa ham, bu do‘stlikni qabul qilma). Halol do‘st – dori-darmondan ko‘ra foydali, yomonlikka moyil odam zahardan ko‘ra zararliroqdir”⁷ deb, yomon do‘stdan yiroq bo‘lishdan ogohlantiradi. Ko‘rinib turibdiki, muallif halol do‘stning qadriga urg‘u berib, yomon ishlar va nifoqqa moyil bo‘lganlar bilan muloqot qilishdan saqlanishni tavsiya qiladi. Maqolada do‘st-larning inson hayotiga qanday ta’sir qilishi mumki-nligini ta’kidlanib, halol do‘stlar insonni qo‘llab-quvvatlashi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi va ijobiylikni ta’minlashi, nopol do‘stlar esa, kelishmovchilik va zarar keltirishi mumkinligi yoritiladi. Zamaxshariy munosabatlardagi amaliy manfaatlardan ko‘ra axloqiy yaxlitlikni birinchi o‘ringa qo‘yib, halol do‘stni darmonga, yomonlikka moyil odamni zaxarga qiyoslash orqali do‘st tanlashning ahamiyatini metaforik shaklda ochib beradi.

“Atvoq uz-zahab”da yuqoridagilardan tashqari yana ko‘plab axloqiy tamoyillar haqida so‘z borishini ko‘rish mumkin. Xususan, ehtiyojmand va muhtojlarga yordam berish (12-maqola), saxovatli bo‘lish, qanoatli bo‘lish, birovning mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik (13-82 maqolalar), karam, oljanoblik, (16-maqola), sabrlilik, xayrixohlik (19-maqola), jasurlik, mardlik, jo‘mardlik (20-maqola), tenglik, dunyoning o‘zgaruvchanlig, boshqalardan biror narsa kutmaslik (30-maqola), ochko‘zlikdan yiroq bo‘lish (33-maqola), mag‘rurlik va kibrning zarari (74-maqola), so‘zlashuv odobi, tilni ehtiyyotlik bilan ishlatish, o‘ylab gapirish (75-maqola), ilmga

intilish, fitnadan yiroq turish, o‘z xatolarini anglash va tavba qilish (85-maqola) kabi masalalar tahlilga tortiladi.

Yigirmanchi maqolada, Zamaxshariy mardlik va jasoratni Alloh roziligidagi loyiq fazilatlar deya tasvirlar ekan, pastkashlikni yomonlikka eng yaqin turuvchi xususiyat deb tasvirlaydi. Bu dunyoda faqat saxovatli insonlar bilan do‘stlashish mumkin deb, saxovatli insonlar bilan kasal yuraklar tuzalib, singan yuraklar o‘z holiga keladi deb qaraydi. Zamaxshariyning qayd etishicha, saxiy odamlar insonning ichidagi yig‘ilgan balolarni olib tashlaydilar. Zamaxshariy mardlik va jasoratni Alloh roziligidagi loyiq fazilatlar sifatida madh etishining asosiy sababi islom falsafasida jasorat hayot qiyinchiliklariga qarshi turish, adolat tarafdoi bo‘lish va e’tiqodni himoya qilish uchun zaruriy xususiyat sifatida ko‘rilishidir.

MUHOKAMA. Zamaxshariy jismoniy jasoratdan tashqari, axloqiy jasoratni ham yuqori baholaydi. Bunga haqiqatni aytish, adolatsizlikka qarshi turish va qiyin vaziyatlarda ham o‘z vijdonini saqlash kiradi. Zamaxshariyning fikricha, saxiylik mazmunli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi, u saxiy odamlarni yordam va shifo manbayi sifatida ko‘radi. Saxiylik islom odob-axloqining asosi bo‘lib, ijtimoiy totuvlik va o‘zaro yordamga chorlaydi. Saxovatli amallar Allohning rozilagini qozonish, shaxs va jamiyat farovonligini oshirish vositasi sifatida ko‘riladi. Zamaxshariyning mardlik, jasorat va saxovatpeshalikka urg‘u berishi asosiy islomi qadriyatlarga mos keladi va bu fazilatlarning shaxs kamoloti va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlardagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning kamtarlik haqidagi nuqtai nazari chinakam kamtarlik va soxta kamtarlik yoki qo‘rqoqlik o‘rtasidagi farqni aniq talqin qilishni nazarda tutadi. Umuman olganda, bu ta’limotlar islom tamoyillari bilan uyg‘unlikda muvozanatli va ezgu hayotga da’vat etadi.

Zamaxshariy “Atvoq uz-zahab”da ramziy tasvirlardan, simvollardan keng foydalanadi, o‘z fikrini yanada ta’sirli ifodalash uchun turli o‘xshatishlarni keltirib o‘tadi. Jumladan, 12-maqolada muhtojlarga yordam beruvchi shaxsni suvi mo‘l buloqqa, 16-maqolada nasabi toza bo‘limganlarni itga, 84-maqolada esa, so‘zida turmaydigan kishini bulg‘angan ko‘lga qiyoslaydi.

⁷ Махмуд Замахшарий. Атвоқу-з-захаб. Кўлёзма.- ЎзРФАШИ №4877. -B. 68.

19-maqolada yomon odamning qalbini yog‘langan qog‘ozga qiyoslab, unga yozishning iloji bo‘lmagani kabi, yomon odamning qalbida ham xayrlilik va yaxshilik bo‘lmasligini qayd etib o‘tadi.

NATIJALAR. Asarda mardlik va saxovat kabi axloqiy tamoyillar yetakchi o‘rinda turishini ko‘rish mumkin. Zamaxshariy mardlikka Allohning roziligiga loyiq xislat deya ta’rif berar ekan, bu dunyoda faqat saxovatli insonlar bilan do‘stlashish mumkin deb izohlaydi. Saxovatli insonlarga qarata: “Ular bilan kasal yuraklar tuzalib, singan qalblar tuzalib ketadi. Ular sendan yiroq bo‘lgan ne’matlarni qaytarib beradilar, ichingda yig‘ilgan balolarni esa sendan olib tashlaydilar”⁸ deb keltiradi. Zamaxshariy mardlikka ilohiy rizolik bilan uyg‘un fazilat deb qarar ekan, haqiqiy mardlik nafaqat jismoniy jasorat, balki Allohga ma’qul keladigan axloqiy mustahkamlik ekanini ham izohlaydi. Saxovatli insonlar bilan do‘st tutinish munosabatlarda ishonch, mehribonlik va o‘zaro yordamni ta‘minlaydigan vosita sifatida qaraladi.

Asarda nutq odobi masalasiga ham alohida izoh berib o‘tiladi. Jumladan, 75-maqolada Zamaxshariy tilning uchini nayzadan ham o‘tkirroq deb ta’riflaydi: “Tilning uchi, chindan ham, nayzaning tishi o‘tmagan narsani ham teshishga qodir. Birovning sha’ni va qadr-qimmatiga nisbatan yomon so‘zlarni aytish uning himoyalangan va yashirin qonini to‘kishdan ham yomonroqdir, shuning uchun o‘ylamay gapirishdan qattiq saqlan. Aytadigan so‘zingni oldin “nega va nima uchun?” deb o‘zingdan so‘ra, batafsil o‘ylab, so‘ng gapir”⁹. Zamaxshariy so‘zning ulkan qudrati va so‘z bilan bog‘liq mas’uliyatni ta‘kidlab, til jarohati jismoniy jarohatdan ko‘ra ko‘proq zararli ekanligiga urg‘u beradi. Zamaxshariyning tilni nayza bilan taqqoslashi so‘zlarning o‘tkirligi va chuqur kirib borish qobiliyatini ta‘kidlab, ular qanday qilib hissiy va ruhiy jarohatlar keltirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

XULOSA. Xulosa shuki, birinchidan, Zamaxshariy qalamiga mansub “Atvoq-uz zahab”da insonning axloqiy-ma’naviy yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlar, axloqiy tamoyillar batafsil bayon qilinadi. Tahlillarimizdan ayonki,

asarda Zamaxshariy ilm va taqvoning muhimligi, ijtimoiy birdamlik va yakdillik, mehr-oqibat, donolik, kamtarlik, or-nomus, halollik, do‘stlik, birodarlik, yordamsevarlik, saxovat, qanoat, oljanoblik, mardlik, sabrlilik, xayrixohlik, tenglik kabi tamoyillarga chorlar ekan, o‘z navbatida shuhratparastlik, manmanlik, takabburlik, maqtanchoqlik, kibr-u havo, ochko‘zlik kabi noplak xislatlarni qattiq tanqid qiladi.

Ikkinchidan, Zamaxshariy “Atvoq uz-zahab”da umrni yelga, shamolga o‘xshatib, insonlarni o‘tkinchi narsalarga ko‘ngil bermaslikka, g‘animat umrni tun-u kun ibodatda va ilm o‘rganishda kechirish zarurligini ko‘rsatib beradi. Asarda kibr-u havo va boshqalardan o‘zini ustun qo‘yish qoralanadi, insonlar ijtimoiy birdamlik va yakdillikka chorlanadi.

Uchinchidan, asarda mardlik va saxovat kabi axloqiy tamoyillar yetakchi o‘rinda turishini ko‘rish mumkin. Zamaxshariy mardlikka Allohning roziligiga loyiq xislat deya ta’rif berar ekan, bu dunyoda faqat saxovatli insonlar bilan do‘stlashish mumkin deb izohlaydi. Zamaxshariy mardlikka ilohiy rizolik bilan uyg‘un fazilat deb qarar ekan, haqiqiy mardlik nafaqat jismoniy jasorat, balki Allohga ma’qul keladigan axloqiy mustahkamlik ekanini ham izohlaydi. Saxovatli insonlar bilan do‘st tutinish munosabatlarda ishonch, mehribonlik va o‘zaro yordamni ta‘minlaydigan vosita sifatida qaraladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Махмуд Замахшарий. Атвоку-з-захаб. Кўлёзма.-ЎзРФАШИ №4877. -В. 68.
2. Бабаназаров И.М. Махмуд Замахшарийнинг маънавий меросига муносабат ёхуд “Атвок уз-захаб”ни ўргангандар борлик олим// Academic research in educational sciences volume 2 | issue 5 | 2021.–Б.459.
3. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. –Т.: Fan, 1971. В: 10-12.
4. Сулаймонова Н.А. Махмуд аз-Замахшарийнинг “Атвок уз-захаб” асари // Шарқ филологиясининг тугун ва ечимлари. Илмий мақолалар тўплами (ТДШИ). – Тошкент, 2005. –Б. 224-230.
5. Аз-Замахшарий. Атвок уз-захаб. Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Тошбосма №18952. 81 б.

⁸Махмуд Замахшарий. Атвоку-з-захаб. Кўлёзма.-ЎзРФАШИ №4877. -В. 68.

⁹Махмуд Замахшарий. Атвоку-з-захаб. Кўлёзма.-ЎзРФАШИ №4877. -В. 68.